



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI  
SAMARQAND VILOYAT XALQ TA‘LIMI BOSHQARMASI  
BULUNG‘UR TUMANI XALQ TA‘LIMI BO‘LIMI  
67-UMUMIY O‘RTA TALIM MAKTABI**

**TABIY FANLAR OYLI GI DOIRASIDA  
FIZIKA FANIDAN**

**O‘TKAZILGAN MA‘NAVIY-MA‘RIFIY**

**TADBIR  
SSENARIYSI**

**Tuzuvchi: M.Toshpo‘latov**

**Bulung‘ur-2019**



# **FIZIKA FANIDAN TABIIY FANLAR «FAN OYLI»GA BAG‘ISHLAB O‘TKAZILAYOTGAN TADBIR SHARTLARI**

## **SHARTLAR**

1. Tanishtiruv.
2. Qiziqarli savol-javob va sardorlar bellashuvi.
3. Erkin mavzu.
4. Qiziqarli tajribalar.
5. Aytishuv.

## **SHARTLARGA IZOH**

### **1.Tanishtiruv**

Bu shartda guruh nomi, guruh shiori, tadbir maqsadi, tadbir uchun qilingan devoriy gazeta va ko‘krak nishoni qo‘shib baholanadi. (Maksimal ball-20ball, vaqt reglamenti 8-minutdan oshmasligi kerak)

### **2.Qiziqarli savol-javob va sardorlar bellashuvi**

Bu shartda guruh qatnashchilariga hayot a‘zolari tomonidan qiziqarli savollar beriladi. Bu shart sardorlar bellashuvini ham o‘z ichiga oladi. (Maksimal ball 20ball: guruh bo‘yicha 15ball, sardorlar bellashuvi 5ball)

### **3.Erkin mavzu**

Bu shartda guruhlar fizika, astronomiya va texnikaga oid mavzular yuzasidan sahna ko‘rinishi tayyorlashadi. ((Maksimal ball-20ball, vaqt reglamenti 8-minutdan oshmasligi kerak).

### **4.Qiziqarli tajriba**

Guruhlar tomonidan fizika va astronomiga taaluqli tajribalar o‘tkaziladi. (Tajribalarda yuqori kuchlanish ~42-220V dan foydalanish mumkin emas). Tajribalar soni cheklanmagan, tajribalarning sifati va soniga qarab baholanadi. (har bir tajriba uchun 5 balldan qo‘yiladi).

### **5.Aytishuv**

Bu shartda guruhlar tomonidan fizika, astronomiya va osmon jismlari qatnashgan sherlar, qo‘shiqlardan parchalar aytiladi.

(Baholash me‘zoni: 1-, 2-, 3- o‘rinlar orasidagi ball farqi 5 balldan iborat bo‘ladi)

**Qatnashuvchi sinflar 9, 10 va 11-sinflar.  
Guruhlarda qatnashchilar soni chegaralanmagan.  
Tadbir 28-mart kuni o‘tkaziladi.**

## 67-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABIDA FIZIKA FANIDAN TABIIY FANLAR «FAN OYLI»GA BAG'ISHLAB O'TKAZILAYOTGAN TADBIR SENARIYSI

### Boshlovchi:

Assalom so'zining kirish qismidan,  
Assalom qalbimning yurak to'ridan.  
Assalom o'zbekning o'g'il-qizidan,  
Assalom bo'lajak yosh fiziklardan.  
Bugungi uchrashuv do'stlik timsoli,  
Fizika fanining sir-u asrori.  
Hakamlar hay'ati tomoshadi bu,  
Uchala komandaning uchrashuvi bu.



Assalomu alaykum mehri daryo, qalbi qaynoq ustozlar, aziz bilimga chanqoq, zukko o'quvchilar.

Bugun maktabimizda fan oyligi munosabati bilan **9, 10** hamda **11** sinf o'quvchilari o'zaro bellashmoq uchun bilimlar maydoniga chiqishdi. Ushbu kechamizda 9-sinfning **“KAMALAK”** guruhi, 10-sinfning **“NOFELET”** guruhi, va 11-sinfning **“MAGNETIK”** guruhlari o'rtasida bellashuv bo'lib o'tadi.

Men hozir sizlarni bellashuv shartlari bilan tanishtirib o'taman.

1. Tanishtiruv.
2. Qiziqarli savol-javob va sardorlar bellashuvi.
3. Erkin mavzu.
4. Qiziqarli tajribalar.
5. Aytishuv (osmon jismlari qatnashgan qo'shiqlar) deb nomlanadi.

Endi esa ushbu bellashuvga taklif qilingan hakamlar hay'ati bilan tanishing.

1. M.Toshpo'latov – O'TIBDO'
2. B.Qurbonov: MMIBDO'
3. J.Meliboyev: Yoshlar yetakchisi.

## 1-SHART

Har uchala jamoalarga omad tilaymiz. Marhamat, 1-shart bo'yicha 9-sinfning "KAMALAK" guruhini taklif etamiz.



**Kamalak guruhi ko'krak nishoni**




**Boshlovchi:** Rahmat. Endi esa shu shart bo'yicha navbatni 10-sinfning **"NOFELET"** guruhiga beramiz. Marhamat.



Nofelet guruhi ko'krak nishoni



**Boshlovchi:** Rahmat. Endi esa shu shart bo'yicha navbatni 11-sinfning **"MAGNETIK"** guruhiga beramiz. Marhamat.



**Magnetik guruhi ko'krak nishoni**



**Boshlovchi:** Rahmat, ajoyib tanishtiruvni guvohi bo'ldingiz. Endi men hakamlardan ushbu shartga qo'yilgan ballar bilan tanishtirishlarini so'rayman.  
9-sinfning **"KAMALAK"** guruhiga qo'yilgan ballar-15 ball  
10-sinfning **"NOFELET"** guruhiga qo'yilgan ballar-18 ball  
11-sinfning **"MAGNETIK"** guruhiga qo'yilgan ballar-16 ball

## 2-SHART

Hech bir gap qolmadi mavhum bo‘lmagan,  
Hech bir sir qolmadi ma’lum bo‘lmagan.  
Bilimim haqida chuqur o‘ylasam,  
Bildimki, hech narsa ma’lum bo‘lmagan.

Endi 2-shart **Qiziqarli savol-javob va sardorlar bellashuvi** deb nomlanadi.  
Sahnaga guruhlarini taklif etamiz. Marhamat.



1. Zaryadlangan jism sirtida zaryad qanday taqsimlanadi? (jismning geometrik yuzasiga bog'liq)
2. Uyingizdagi radiopyomnik ovozining balandligini nima bilan o'zgartirish mumkin? (reostat)
3. Nima sababdan o'tkazgichdan tok o'tganda qiziydi? (elektronlar bilan panjara ionlari to'qnashadi)
4. Zaryadlangan jismlar atrofida qanday maydonlar mavjud? (elektr va magnit)
5. Xonadondagi lampochka, televizor, sovutkich va boshqa iste'molchilar qanday ulanadi? (parallel)
6. Kondensatorning vazifasi nimadan iborat? (zaryad to'plashdan)



7. Daraxtga yashin tushganda hosil bo'lgan tok kuchi daraxtga tegmay turgan odamni urishi mumkinmi? Mumkin bo'lsa nima uchun? (chunki odam yerda, ya'ni uning tovoni yerda turibdi. Tok yer orqali odamni uradi)
8. Nega chaqmoq oldin ko'rinib momaqaldiraq ovozi keyin keladi? (tovush tezligi yorug'lik tezligidan kichik, ya'ni 340 m/sek)
9. Ko'pincha kuyib qolgan elektr lampochkani silkitib qayta yondirish mumkin. Bunda lampochkaning avvalgiga qaraganda ravshanroq yonishini ko'ramiz. Buning sababi nimada? (bunda lampochka tolasining uzunligi kamayib, quvvat esa ortadi)
10. Nega qo'l soatlarining muruvvatini kechqurun emas ertalab burash tavsiya etiladi?
11. Nega ichiga qand tashlangan choy qandsiz choyga nisbatan tezroq soviydi?
12. Nega elektr lampochkalari bosimi atmosfera bosimidan ancha past bo'lgan inert gazlar bilan to'ldirilgan bo'ladi?



## SARDORLAR BELLASHUVIDAN LAVHALAR



**Boshlovchi:** Rahmat. Endi men hakamlardan ushbu shartga qo‘yilgan ballar bilan tanishtirishlarini so‘rayman.

9-sinfning **“KAMALAK”** guruhiga qo‘yilgan ballar-15 ball  
10-sinfning **“NOFELET”** guruhiga qo‘yilgan ballar-15 ball  
11-sinfning **“MAGNETIK”** guruhiga qo‘yilgan ballar-18 ball

### 3-SHART

Yoshlik, bahor yurakda o‘t,  
Ustoz gapin yodingda tut.  
Uy vazifasi bo‘lib unut,  
3 olsam ham o‘zing yaxshi.  
Shodligimdan she‘rlar to‘qib,  
Hayot saboqlaring o‘qib.  
To tonggacha kitob o‘qib,  
Toliqsam ham o‘zing yaxshi.

Keyingi shartni **“Erkin mavzu”** deb atadik. Bu shartgda ishtirokchilar o‘zlari tayyorlab kelgan sahna ko‘rinishlarini namoyish etadilar.

**Boshlovchi:** Endi esa shu shart bo‘yicha navbatni 9-sinfning **“KAMALAK”** guruhiga beramiz. Marhamat.



**Boshlovchi:** Rahmat. Endi esa shu shart bo'yicha navbatni 10-sinfning **"NOFELET"** guruhiga beramiz. Marhamat.



**Boshlovchi:** Rahmat. Endi esa shu shart bo'yicha navbatni 11-sinfning **"MAGNETIK"** guruhiga beramiz. Marhamat.



**Boshlovchi:** Rahmat, ajoyib tanishtiruvni guvohi bo'ldingiz. Endi men hakamlardan ushbu shartga qo'yilgan ballar bilan tanishtirishlarini so'rayman.

9-sinfning **"KAMALAK"** guruhiga qo'yilgan ballar-18 ball

10-sinfning **"NOFELET"** guruhiga qo'yilgan ballar-18 ball

11-sinfning **"MAGNETIK"** guruhiga qo'yilgan ballar-15 ball

#### **4-SHART**

**F**-aylasuf bo'lmasman balki vaqt o'tib,

**I**-zmimga solmasman butun dunyoni.

**Z**-arhal harflar-la yozilmas ismim,

**I**-stasam-da quchmoq borliq samoni.

**K**-im bo'lmay, gadomi yo malika,

**A**-y lay jonim fido senga **FIZIKA**.

Endigi shart **Qiziqarli tajriba**. Har uchala jamoa vakillarini sahnaga taklif etamiz. Marhamat.



9-sinfning **"KAMALAK"** guruhiga qo'yilgan ballar-20 ball

10-sinfning **"NOFELET"** guruhiga qo'yilgan ballar-17 ball

11-sinfning **"MAGNETIK"** guruhiga qo'yilgan ballar-40 ball

## 5-SHART

**Boshlovchi:** Rahmat. Nihoyat, oxirgi shartga ham yetib keldik. Navbat oxirgi shart-Aytishuvga. Bu shartda har uchala guruh vakillari navbat bilan osmon jismlari (quyosh, oy, yulduz, osmon...) qatnashgan qo'shiqlarni ijro etishadi. Qaysi guruh vakili to'xtab qolsa o'sha guruh yutqizgan hisoblanadi. Demak, shartni boshlaymiz.

### **Kamalak**

Mayli, **oy**ning sochlarini o'rmayman,  
Mayli **yulduz** bilan suhbat qurmayman.  
Men seni oylarga,  
Men seni yulduzga,  
1-o'rinni senga bermayman.

### **Nofelet**

Qorong'u kechada **ko'kka** ko'z tikib,  
Eng yorug' **yulduz**dan seni so'radim.  
Ul yulduz uyalib, boshini egib,  
Aytadir men uni tushda ko'ramen.  
Men ko'rgan suyukli shunchalar go'zal,  
Bizdan-da go'zaldir, **oy**dan-da go'zal.

### **Magnetik**

Ko'zlarimda yosh,  
To'zaman bebosh.  
Sensiz kunlarimda yo'qdir **quyosh**.  
Ko'zlarimda yosh,  
To'zaman bebosh,  
Qanday yashayman ayt **oy-u quyosh**.

### **Kamalak**

Sevar yorim qaydadir  
**Oymomajon** so'ylagin  
Rad etma yo'q demagin  
Meni ham bir o'ylagin

### **Nofelet**

**Yulduzlarga** to'ldi **osmon**  
Isming yuragimda har on  
Hayollarimni band etib  
O'ylayman seni har zamon

### **Magnetik**

Allalagin to'lin **oy**  
Yor otasi uxlasin  
Yorni olib qochganim  
Sendan boshqa sezmasin

### **Kamalak**

**Yulduzlar** miltirab, **osmon** yig'lyadi,  
Armon ko'zlarimni to'ldirar yoshga.  
Ne qilay darsiga,  
Ne qilay darsiga kirgim kelmaydi,  
Axir mashq daftarim mendamas, uyda.

### **Nofelet**

**Bulut** to'sib yuzini  
**Oy** uxlaydi osmonda  
Ko'chamizda bir qiz bor  
Tengi yo'q bu zamonda

### **Magnetik**

**Chaqmoq** chaqar, **chaqmoq** chaqar.  
**Yong'ir** yog'ar, **yong'ir** yog'ar.  
Meni suyganim, meni sevganim,  
Kimga boqar, kimga boqar.

### **Kamalak**

Meni nolam, meni nolam,  
Yetsa edi **osmonga**.  
Meni nolam, meni nolam,  
Aylansam oddiy insonga.

### **Nofelet**

Sen emasmi meni sevgan sen nega voz  
kechding  
Yo taqdirning o'yiniga yengildim deb  
ketding  
**Yorug'likning tezligiday** sen tomonga  
borgim keladi  
Soatlarim to'xtaganlar, yo'qligingni biladi.

### **Magnetik**

**Osmonimda** porlagan  
**Yulduzimsiz** yolg'izim  
Bu dunyoda yetmagan  
Armonimsiz yolg'izim

### **Kamalak**

Gar sen yonimda bo'lsang  
Agar sen yonimda bo'lsang  
Kerak emas menga dunyo  
**Yulduz**larsiz nurli **samo**

### **Nofelet**

To'lin **oy** ko'ksimga botib ket  
Ko'ksimdan dardlarim olib ket  
Ko'ksimdan dardlarim olib ket  
Bevafo makridan to'ydim man  
Bo'gzimdan yoshlarim yuvib ket  
Bo'gzimdan yoshlarim yuvib ket

### **Magnetik**

Istasang shu **falak**dan  
**Oyni** olib beraman  
**Yulduz**lardan bo'ynigga  
Marjon taqib qo'yaman

### **Kamalak**

Ko'zlari **yulduz** o'zim,  
Qoshlari qunduz o'zim.  
**Oy**dayin to'lgan o'zim,  
Joningizga jon o'zim.

### **Nofelet**

O'zingni katta olma, daryo-soyimiz bitta,  
**Yulduz** to'la charog'on, **osmon-oyimiz**  
bitta.  
Beshlaringga ishonma, tashlab ketar maktab  
bu,  
Har bir olgan ikkingga, javob bermoq  
maktab bu.

### **Magnetik**

Yonimda bo'lasan paydo,  
O'sha zahot o'zgarar dunyo.  
Cheksiz **samol**larda,  
Parvozdami go'yo.

### **Kamalak**

Chora yo'qdir maydanam,  
Go'zaldirsan **oy**danam.  
Uchratdima qaydanam,  
Nozing boshqacha sani.

### **Nofelet**

**Oy**dan olis, go'zal kechalar,  
Sog'inaman seni qanchalar.  
**Oy**dan olis, go'zal kechalar,  
Betakrordir bular bunchalar

### **Magnetik**

Salqin **shamol** sochlarimni silab ketdi,  
Bu kechani yoritguvchi **oy** ham ketdi.  
Ketmagin qol, so'zlarimni tingala bir bor,  
O'tinaman, hayotimdan ketma zinhor.

### **Kamalak**

Atrofigda yaqinlar  
Senga baxtlar tilar.  
**Osmondagi yulduz**lar,  
Bugun sen uchun porlar.

### **Nofelet**

Hafa qilmagin qizlarni,  
Yig'latma bu ko'zlarni.  
Doim asrab-avayla,  
Go'yoki **yulduz**larni.

### **Magnetik**

Yelkamga yuk tashladi **osmon**,  
Bu azoblar qo'ygaymi omon.  
Seni bugun sog'indim yomon,  
Seni bugun ko'rmasam bo'lmas.

### **Kamalak**

Boshimiz uzra mudom,  
Porlagay **oftobimiz**.  
Bizni baxtga to'ldirib,  
Tinch bo'lgay **osmonimiz**.

### **Nofelet**

Parvozim istar **osmonim**,  
Lekin qanotim qayrildi.  
Soldi **bulutlar** soya,  
Bundan ko'nglim ayrildi.

### **Magnetik**

**Oy** yuzingdaney,  
Jon so'zingdaney.  
**Oy** yuzing, jon so'zing,  
Jonim billuram.

### **Kamalak**

Qancha san tomon yursam,  
Yana yurgim kelodi.  
Kunda **oy** yuzing ko'rsam,  
Yana yurgim kelodi.



### **Nofelet**

Osmonlarda oyim degan eding-a,  
Go‘zallikka boyim degan eding-a.  
Qayerlarga ketding yor meni tashlab  
kelmaysan,  
Ura-ura yongan yuragimni bilmaysan.

### **Magnetik**

Makonim osmondir,  
Qaytmog‘im gumondir,  
Bu yerdagi g‘avg‘oga.

### **Kamalak**

Sen o‘xsharsan oftob mehriqa,  
Nigohingda yulduzlar porlar.  
Seni quchsin baxtning qo‘llari,  
Senga boqay bir zumga chorla.

### **Nofelet**

Sumalakdan tosh topdim,  
Bir parcha quyosh topdim.  
Ko‘ksimda yondi umid,  
Bir ajib sirdosh topdim.

### **Magnetik**

Yulduzlari to‘kilib qolgan osmoningni  
yoritay,  
Ming bir kecha maktab haqida ertaklarni  
aytay.  
Oh, kemada oshib kelgin men tomonga  
Nigohlarim aldama so‘zlarimga ishon.

**Boshlovchi:** Bularga qo‘yib bersa ertalabgacha qo‘shiq atyib chiqishadi.  
Hakamlarimiz shartni to‘xtatishimizni so‘rashyapti.

9-sinfning **“KAMALAK”** guruhiga qo‘yilgan ballar-15 ball

10-sinfning **“NOFELET”** guruhiga qo‘yilgan ballar-15 ball

11-sinfning **“MAGNETIK”** guruhiga qo‘yilgan ballar-15 ball

Endi esa so‘z navbatini MMIBDO‘ Qurbonov Bektosh domlaga bersak.  
Marhamat.

### **Qurbonov Bektosh:**

Rahmat. Avvallari fizika fani oyligi may oyida o‘tkazilar edi. Endi esa mart oyida o‘tkazilyapti. Nafaqat fizika, balki kimyo, biologiya oyligi hamdir. Fizika fani o‘qituvchilarimiz ajoyib bir tadbir tashkil qilishibdi. Bu kabi tadbirlar o‘quvchilarning fizika faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bularga katta rahmat aytamiz. Hozir esa so‘z navbatini O‘TIBDO‘ Toshpo‘latov Ma‘rufga bersak. Ular ham o‘zlarining fikrlarini, tilaklarini bildirsalar. Marhamat.

### **Toshpo‘latov Ma‘ruf:**

Assalomu alaykum hurmatli o‘quvchilar, ustozlar. Mehmonlarimiz. Xush kelibsizlar. Mana, har doimgidek bizda fan oyligi. Bu fan oyligi boshqa fan oyliklaridan farqli o‘laroq ajoyib tadbir bilan boshlandi. Ko‘rganingizdek, bizda har bir tadbirlar mana shunday quvnoq, sermazmun o‘tadi. Bugungi tadbir ham ko‘p mehnat samarasi ekanligi ko‘rinib turibdi. Buning uchun tashkilotchilarimizga rahmat aytamiz.

Har uchala guruhlar ham puxta tayyorgarlik ko‘rishibdi. Bir-birlariga g‘oliblikni bermaslik uchun qo‘llaridan kelgucha harakat qilishdi. 9, 10 va 11-sinflar eng ilg‘or, bilimli guruhlardan hisoblanadi. Bular nechog‘li ko‘p ashula bilarkan, shularning ichidan osmon jismlari qatnashganini topib aytish katta

mahorat belgisi. Nafaqat o'quvchiligi, balki san'atkor ekanliklarini ham ko'rsatishdi. Buning uchun ularni tayyorlagan ustozlariga ming marta rahmat aytamiz.



Biz bularning chiqishlarini holisona baholadik, aslida esa do'stlik g'olib deb bermalol ayta olamiz. "Nofelet" guruhining sahna ko'rinishlari bizlarga judayam yoqdi. Fanni bu darajada ham kulgu bilan, ham sahna ko'rinish bilan olib chiqishibdi. "Magnetik"ning ham ko'zga ko'ringan narsalari ko'p bo'ldi. Ularga ham rahmat deymiz.

**Umumiy ball quyidagicha:**

9-sinfning **"KAMALAK"** guruhiga qo'yilgan ballar-83 ball

10-sinfning **"NOFELET"** guruhiga qo'yilgan ballar-83 ball

11-sinfning **"MAGNETIK"** guruhiga qo'yilgan ballar-84 ball

G'olib **11-sinfning Magnetik** guruhi.

So'ng ishtirokchilarga estalik sovg'alari ulashildi.

**E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT.**